

**QORAQALPOG'ISTON
RESPUBLIKASI
VAZIRLAR KENGASHINING
QARORI**



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI
MINISTRLER KENESININ
QARARI**

2023 - yil 28 - oktabr

374-13-0-Q/23

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashi

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani "Sarabiy" OFY hududidan
doimiy foydalanish huquqi asosida yer maydoni ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 3-moddasi, "Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 35-moddasi va "Yer to'g'risida"gi Qoraqalpog'iston Respublikasi Qonunining 4-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-son qaroriga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 18-sentyabrdagi "Islom taraqqiyot banki va opek xalqaro taraqqiyot jamg'armasi ishtirokida «Qishloq joylarni barqaror rivojlantirish» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5246-sonli qarori ijrosi yuzasidan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUKning 2023-yil 11-iyuldagi 01/4-8/1183-sonli buyurtma xatini inobatga olib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi **qaror qiladi:**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish vazirligi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari hamda kelishuvlari ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Ellikqal'a tumani hokimligi zaxira yer fondida turgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlardan "Sarabiy" OFY hududidan maktabgacha ta'lim tashkiloti binosi qurilishi uchun 0,30 gektar yer maydoni ilovaga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUKga doimiy foydalanish huquqi asosida o'rnatilgan tartibda ajratib berilsin.
3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi DUK (I.Niyazov) belgilangan tartibda:
- ajratilgan yer maydonlariga qurilish loyiha hujjatlarini rasmiylashtirish;

- ajratilgan yer maydonlarida qurilish ishlarini tegishli vakolatli tashkilotlar tomonidan berilgan loyihalar va texnik shartlarga amal qilgan holda amalga oshirish;

- ajratilgan yer uchastkalarida qurilish ishlarini davlat va jamoat ehtiyoji uchun doimiy foydalanishga berilayotgan yer uchastkasiga bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin boshlash choralari ko'rsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi (S.Urunboyev) mazkur qarorga muvofiq yer fondiga o'rnatilgan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari Sh.Dauletiyarov zimmasiga yuklansin.


**Qoraqalpog'iston
Respublikasi Vazirlar
Kengashi Raisi**



F.Ermanov

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Vazirlar Kengashining
2023-yil 28-oktabrdagi
374-13-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Ellikqal'a tumani Sarabiy OFY hududidan maktabgacha ta'lim tashkiloti qurilishi uchun
tanlangan yer uchastkasining joylashishi**



Yer uchastkasi haqida qisqacha ma'lumotlar: Yer uchastkasi tuman zaxira yerlarida joylashgan bo'lib, Shimol tomondan ichki avtoyo'l 23-30 metr masofa ochiq maydon bilan, G'arib tomondan mavjud tomorqa yerlar bilan, Janub tomondan aholi punkt joylari bilan, Sharq tomondan mavjud tomorqa yerlar bilan chegaralangan.

Koordenotalari:

1. 41°35'12.56"C 60°54'3.16"B 2. 41°35'11.43"C 60°54'7.22"B
3. 41°35'10.52"C 60°54'6.76"B 4. 41°35'11.65"C 60°54'2.71"B

Tuman markazidan 30 000 metr radius masaofada

Yer uchastkasining maydoni ga): 030 ga (100 x30)

Yer fondi: zaxira yerlari

Taqiqlanganligi: yo'q

Yer turi: Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlari

Foydalanish maksadi: Maktab